

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN “QISHLOQ  
XOJALIK MASHINALARI VA CHORVACHILIKNI  
MEXANIZATSIYALASHTIRISH” MAXSUS FANIDAN MALAKA TEST  
SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

# **O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN “QISHLOQ XOJALIK MASHINALARI VA CHORVACHILIKNI MEXANIZATSIYALASHTIRISH” MAXSUS FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida “Qishloq xojalik mashinalari va chorvachilik jihozlari”, “Qishloq xojalik mashinalari va chorvachilikni mexanizatsiyalashtirish” maxsus fanlaridan talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me’yoriy asoslar**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-sonli Qarori.

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

### **QISHLOQ XOJALIK MASHINALARI VA CHORVACHILIKNI MEXANIZATSIYALASHTIRISH**

1. Traktor va avtomobillar tuzilishi
2. Qishloq xo‘jalik mashinalari va chorvachilik uchun jihozlar
3. Qishloq xo‘jaligi mashinalarini ishlatish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish;
4. Qishloq xo‘jaligida mexanizatsiyalashgan ishlar texnologiyasi

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

<b>T/r</b>	<b>Mazmun sohalar</b>	<b>Konstruktlar</b>	<b>Ulushi (%)</b>	<b>Testlar soni</b>
<b>1</b>	Traktor va avtomobillar tuzilishi	Traktor va avtomobillar, dvigatellar, shassilar turlari, tuzilishi, qismlarining tuzilishi elektr jihozlari tuzilishi, ularga TXK va ta'mirlash to'g'risidagi bilimlari bilishi va qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lish kerak	10%	4 ta
<b>2</b>	Qishloq xo'jalik mashinalari va chorvachilik uchun jihozlar	Tuproqqa ishlov berish mashinalari Tuproqqa sayoz ishlov beradigan mashinalar Ekish mashinalari Qator oralariga ishlov beradigan mashinalar O'g'itlash mashinalari O'simliklarni himoya qilish mashinalari Don kombaynlari Paxta terish mashinalari Ozuqa g'amlash uchun mashinalar Kartoshka kovlash va yig'ish mashinalari Yuk ortish otashish mashinalari Melioratsiya va tekislash ishlarini mexanizatsiyalash Ferma va komplekslar haqida umumiy ma'lumotlar Suv ta'minotini mexanizatsiyalash Ferma ichki transporti Ozuqqa tayorlashni mexanizatssiyalash Sigirlarni sog'ish va sutga daastlabki Ishlov berishni mexanizatssiyalashtirish	50%	20 ta
<b>3</b>	Qishloq xo'jaligi mashinalarini ishlatish va ularga texnik xizmat ko'rsatish	Qishloq xo'jaligi mashinalarini ishlatish va ularga texnik xizmat ko'rsatish va bu ishlarni bajarishda texnika xavfsizligi qoidalarini bilish.	30%	12 ta
<b>4</b>	Qishloq xo'jaligida mexanizatsiyalashgan	Agregatning ish unumdorligi. Agregatning harakatlanish usullari. Qishloq xo'jaligida mexanizatsiyalashgan ishlar	10 %	4 ta

	ishlar texnologiyasi	texnologiyasi haqida bilimlarga ega bo'lish.		
--	----------------------	--	--	--

### V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20%

### VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

### VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yorini belgilanadi.

### VIII. Imtihon tartibi

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

## **IX. Inklyuziya va moslashtirish**

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha (umumiy vaqtning 15 %i miqdorida) vaqt qo'shib beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas. \

## **X. Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. K.Igamberdiyev, qishloq xo'jaligi mashinalarini ishlatish va ularga texnik xizmat ko'rsatish. Toshkent-2022m

2. «Traktor va avtomobillar» A.I.Kamilov, Q.A.Sharipov, N.T.Umarov, Z.Y.Yusupov . Cho'lpon nomidagi NMIU, 2017

3. A.K.Igamberdiyev, S.Aliqulov.qishloq xo'jaligi mashinalarini ishlatish va ularga texnik xizmat ko'rsatish. Toshkent-2022.

4. M.Shoumarova. Qishloq xo'jaligida mexanizatsiyalashgan ishlar texnologiyasi. Toshkent -2015

5.O.U.Salimov "Avtomobillarni tuzilishi, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash", "Ilm Ziyo" Toshkent2014yil.

6. A.Muxitdinov, J.Qulmuxamedov "Transport vositalarining tuzilishi", "Ta'lim nashriyoti" Toshkent2019yil.

7. F.N.Maxmudov "Avtotransport vositalarining elektrjihazlari", "Ilm Ziyo" Toshkent-2014yil.

8. A.I.Komilov, Q.A.Sharipov, N.T.Umirov, Z.Yu.Yusupov "Traktor va avtomobillar", "Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi" Toshkent-2007yil.

9. A.Muxitdinov, V.Sattivaldiev, Sh.Xakimov "Transport vositalarinig tuzilishi", "Ta'lim nashriyoti" Toshkent-2014yil.

10. D.I.Xoshimov "GM-Uzbekistan avtomobillarning konstrukstiyasi", "Avtomsan" Toshkent-2017yil.

11. К.Шестоналов «Строительство, техническое обслуживание и ремонт легковых автомобилей», Издательский центр «Академия» -2000г.

12. D.I. Xoshimov, G'.N.Maxmudov "Yengil avtomobillarning tuzilishi", "Avtomsan" Toshkent-2019yil.

13. Yu.I.Borovskix, Yu.V.Buralev, K.A.Morozov, V.M.Nikiforov, A.I.Feshenko "Avtomobillarning tuzilishi, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash", "Mehnat " Toshkent-2001yil.

14. K.A.Loshakov "Avtomobillarning tuzilishi", "O'qituvchi" Toshkent-1992yil. 15. "Avtomobillarning tuzilishi" fani bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanma.

15.M. SHAUMAROVA, T. ABDILLAYEV "QISHLOQ XO'JALIGI MASHINALARI VA USKUNALARINI ISHLATISH HAMDA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH ISHLARI" "Premium poligraf biznes" MCHJ TOSHKENT – 2024

16.M.SHOUMAROVA, T.ABDILLAEV "QISHLOQ XO'JALIGI MASHINALARIDAN PRAKTIKUM" TOSHKENT - 2020

17.M.Shoumarova, T.Abdillayev. Qishloq xo'jaligi mashinalari: Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2016, 288 bet.

18. R.A.ABDIRAXMONOV, M.X.MAMADALIYEV, X.B.SAMSAQOVA “QISHLOQ XO‘JALIGI TRAKTOR VA AVTOMOBILLARINING TASNIFI VA TUZILISHI” / o`quv qo`llanma / “Classic” nashriyoti – 2023.162 bet

19. P.T. Berdimuratov, U.S. Berdimurodov, M.R. Djiyanov, R.D. Xalilov “Qishloq xo'jaligida mexanizatsiyalashgan ishlar texnologiyasi”. Toshkent -2020

20. M. MELIBAYEV “QISHLOQ XO‘JALIK MASHINALARI VA ASBOB-  
USKUNALARINI TA‘MIRLASH VA TEXNIK XIZMAT KO‘RSATISH  
TEXNOLOGIYASI” Xalq nashriyoti» Toshkent – 2022

21.Sh.Magdiev, Avtomobillar tuzilishi, avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish , ta'mirlash. Toshkent-“Ilm ziyo “-2006 yil

22.G'.N.Mahmudov. Avtotransport vositalariningelektr jihozlari. Toshkent-“Ilm ziyo “-2014 yil

23. R.JTojiyev.Mexanizatsiyalashtirilgan ishlar texnologiyasi.Toshkent-2005

24. M.Melibayev Qishloq xo'jalik mashinalari va chorvachilik uchun jihozlari.Toshkent-2014

*\*Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*